



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## “BOBURNOMA” DA TUSH FENOMENI

### THE DREAM PHENOMENON IN “BOBURNAMA”

Ilhom Aslonov

Filolog, psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, kafedra mudiri

E-mail: [ilhom-aslonov@mail.ru](mailto:ilhom-aslonov@mail.ru)

ORCID: 0000-0003-2055-1507

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./NGNN2116](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./NGNN2116)

**Annotatsiya.** Maqola “Boburnoma”dagi tush fenomenining badiiy-psixologig tahliliga bag'ishlanadi. Muallif “tush” jarayonining psixologig talqini, badiiy adabiyotda ushbu masalaning o'rganilish tarixi hamda hozirgi zamon g'arb adabiyot vakillarining mazkur masaladagi tadqiqotlarga to'xtalib, ilmiy xulosalar beradi.

**Kalit so'zlar.** Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, tush fenomeni, Bertels, Xoja Abdulloh, g'arb sharqshunosligi.

**Annotation.** The article is devoted to the artistic and psychological analysis of the phenomenon of dreams in the “Boburnoma”. The author draws scientific conclusions, focusing on the psychological interpretation of the “dream” process, the history of the study of this issue in fiction, and the research on this issue by contemporary Western literary figures.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, “Baburnama”, dream phenomenon, Bertels, Khoja Abdullah, Western orientalism.

Inson ruhiyatining shunday qatlamlari borki, ular hali insoniyat tafakkuri chegaralaridan tashqarida, ilm-fan ularni to'liq tushuntirib bera olmaydi. Shunday holatlardan biri tushdir. Har birimiz o'z tajribamizda tush bilan bog'liq g'ayritabiiy holatlarga duch kelganmiz. Tushlar ong ostidagi o'zimiz ham bilmagan niyat va istaklarimizni yuzaga chiqaradi. G'ayritabiiy holatda farzand muammolaridan tushida xabar topgan ona, uzoq ko'rishmagan yaqin insoninigi kelishini tushida ko'rgan qarindosh, jigar haqidagi voqealar insonlar uchun oddiy holatga aylangan.

Har qanday sirli voqea singari tushlar odamni o'ziga tortadi. Shuning uchun, bu jumboqli hodisa xalq og'zaki ijodida keng qo'llanib, afsona va miflarning, ertaklarning doimiy mavzusi bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan “Boburnoma” asari muallifi Zahiriddin Muhammad Boburdek yuksak iroda va quvvai-hofizaga ega bo'lgan insonning mo'jizakor tushlari nafaqat uning hayotiga, balki butun bir sulola yoki mamlakat kelajagiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi bejiz emas.

“Boburnoma”da uchraydigan tush tasvirlari asarning manbaviy-tarixiy xususiyati bilan bir qatorda uning badiiy poetikasiga ham mansubligini ko'rsatadi. Ye. E.



Bertels ta'kidlaganidek, mazkur asar hujjatli xotira sifatidagi qiymatini saqlagan holda, sharq memuar-adabiy an'anasiga xos badiiy ishlov unsurlarini ham o'zida mujassam etadi [Бертельс Е. Э.. 1960:433–435.].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, “Boburnoma”dagi tushlar voqealarning oddiy biografik qaydi sifatida emas, balki muallifning ichki ruhiy holati, psixologik kechinmalari va taqdiriy jarayonlarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi badiiy-uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham ushbu qarash rivojlantiriladi, jumladan, I.Sultonov Bobur tush motivlaridan qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiluvchi poetik vosita sifatida foydalanganini qayd etadi. Demak, «Boburnoma»dagi tush tasvirlari asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim poetik komponentlardan biri hisoblanadi.

Ye. E. Bertels “Boburnoma” matnini adabiy manba sifatida tahlil qilib, undagi ayrim epizodlar, jumladan, tushlar muallif tomonidan ongli ravishda kiritilgan badiiy elementlar ekanini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, Bobur o'z xotiralarida real voqealarni adabiy uslubda qayta ishlab, tarixiy voqelikni sub'ektiv talqin bilan uyg'unlashtirgan. Shu nuqtai nazardan, tushlar Bobur shaxsiy kechinmalari va psixologik holatini ifoda etuvchi, biroq qat'iy tarixiy dalil sifatida qabul qilinmasligi lozim bo'lgan detallar sifatida baholanadi.

Bertelsning ta'kidlashicha, bunday tushlar «Boburnoma»ning umumiy badiiy tuzilishida dramatik ta'sirni kuchaytirish, qahramon obrazini chuqurlashtirish vazifasini bajaradi. Demak, sovet adabiyotshunosligi doirasida tushlar asosan estetik-badiiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Ammo fikrimizcha, “Boburnoma”dagi tushlarini mutlaqo badiiy to'qima yoki mutlaq tarixiy dalil sifatida qarash biryoqlama yondashuv bo'lardi. Ular, bir tomondan, adabiy qayta ishlangan xotira shaklida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, Bobur davri diniy tafakkuri va sufiy siyosiy madaniyatining real in'ikosidir.

«Boburnoma» asarida keltirilgan tushlar masalasi hozirgi zamon g'arb sharqshunosligida alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qarala boshladi. Shu yo'nalishda e'tiborga molik ishlardan biri amerikalik tadqiqotchi Genri D. Brillning “Reading Babur's Dreams: Religiosity and Kingship in Early-Modern Central and South Asia” (Bobur tushlarini o'qish: Ilk zamonaviy Markaziy va Janubiy Osiyoda dindorlik va podshohlik) [Brill, Henry D. 2019] nomli maqolasida Bobur tushlarini diniy-siyosiy kontekstda talqin qiladi. Olimning fikricha, Bobur tomonidan bayon etilgan tushlar sufiy an'analarga xos ramziy ma'no kasb etib, hukmdorlikni ilohiy qo'llab-quvvatlash g'oyasi bilan bog'lanadi.

Ushbu tadqiqotda Bobur tomonidan “Boburnoma”da tasvirlangan ikkita asosiy tushdan biri temuriylar diniy-siyosiy tafakkurining bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif ta'kidlaydiki: Boburning tushlari shunchaki tasodifiy tushlar



emas, balki o‘z davrining siyosiy va diniy madaniyatini, xususan, markazlashgan hokimiyat va g‘oyaviy – etiqodiy munosabatlarini aks ettiruvchi matnlardir.

Brill ayniqsa, Xoja Ubaydulloh Ahror bilan bog‘liq tush epizodini tahlil qilib, uni Bobur hokimiyatini ma’naviy jihatdan legitimatsiya qiluvchi diskursiv vosita sifatida ko‘radi. Ushbu tush, tadqiqotchi fikricha, Boburning siyosiy da’vosi tasodifiy emas, balki “valoyat” orqali muqaddaslashtirilgan ekanini namoyon etadi. “Boburnoma” muallifi o‘zini nafaqat harbiy-siyosiy yetakchi, balki ruhoniylar jihatidan ma’qullangan hukmdor sifatida namoyon qilgani ayon bo‘ladi. Bu esa tushlarning badiiy to‘qima emas, balki muayyan mafkuraviy vazifani bajaruvchi ongli ravishda tanlangan matniy element ekanini ko‘rsatadi.

Maqolada ta’kidlanishicha, Bobur tushlari shaxsiy ichki kechinmalarni aks ettirishdan tashqari, jamoaviy o‘quvchi uchun mo‘ljallangan ramziy xabar vazifasini o‘taydi. Muallif buni “podshohlik va valoyat (walāya) o‘rtasidagi muloqot maydoni” sifatida ta’riflaydi.

Xulosa qilib aytganda, Genri D. Brillning mazkur tadqiqoti Bobur tushlarini “tasodifiy xotira” yoki “badiiy bezak” sifatida emas, balki ilk yangi davr musulmon hukmdorining diniy o‘zini anglashi va hokimiyatni asoslash strategiyasining muhim qismi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv Boburnomadagi tushlar masalasini qayta baholash, ularni tarixiy-diniy tafakkur nuqtai nazaridan chuqur o‘rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Bobur tushlari nafaqat badiiy bezak, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy va diniy ma’nolarni yuklovchi murakkab matniy fenomen sifatida baholanishi lozim.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, fanda g‘ayrioddiy hodisalar hayotiy fakt sifatida qabul qilinmaydi. Ammo tush ko‘rish, bashoratchilik va yuqori darajadagi intuitsiya bilan bog‘liq psixologik hodisalar psixologiyada inkor etilmaydi. Hatto bu bilan bog‘lik alohida fan sohasi – parapsixologiya fani mavjud.

Bobur ham ensiklopedik olim va yuksak tafakkur egasi sifatida g‘ayrioddiy holatlarga shubha bilan qaraydi va ularni inkor etuvchi dalillarni izlab topadi. Bunday holatlar “Boburnoma”da bir necha o‘rinlarda keladi.

Shu o‘rinda Xayriddin Sultonovning “Boburning tushlari” essesinde keltirilgan mulohazalar o‘rinli deb o‘ylaymiz: “Bilamizki, Bobur o‘z davrining peshhadam mutafakkiri sifatida xurofotdan, tarahqiyot yo‘liga g‘ov tashlaydirgan turli bid’atlardan yiroq bo‘lgan. Imkoni qadar buningdek qarashlar va xatti-harakatlardan uzoq yurmoqqa tirishgan. Xurofot bilan haqiqat chegarasinn juda nozik farqlagan Bobur Mirzo bir o‘rinda shunday g‘alati manzarani tasvirlaydi:

“G‘azni kentlarida bir mazor bordurkim, salovot aytg‘och, qabr mutaharrik bo‘lur. Borib mulohaza qilildi, qabrning tebrangani maxsus bo‘ldi. So‘ngra ma’lum bo‘ldikim, mujovirlarning tazviri ekandur. Qabrning ustiga bir julya yasabturlar, har zamon julyag‘a tegadurlar, julya tebrang‘ach, qabr tebrangandek maxsus bo‘ladur. Nechukkim, kemaga kirmagan el kemaga kir- gach sohil mutaharrik maxsus bo‘lur. Buyurdumkim, mujovirlar julyadin yiroq turdilar, bir



necha salovot aytdilar, qabrda harakate maxsus bo'lmadi. Buyurdumkim, julyani buzub, qabrning ustida gunbaz qildilar. Mujovirlarni bu harakattin tahdid ila ma'n qilildi”.

Bu – Bobur hayotidagi yagona hodisa emas. Boburning umr kitobi – “Boburnoma”dan shu yanglig' misollarni ko'plab keltirish mumkin. O'z qo'shini safida xizmat qilgan Muhammad Sharif degan munajjimni eslab o'tarkan, Bobur uning soxta karomatlaridan achchiq istehzo bilan kuladi. Jangu jadallar uchun qulay payt yetganida bu shumnafas munajjim ko'p holatlarda yolg'on bashoratlar bilan Boburning shahdini qaytarmoqqa uringan. “Bu tun Mirrix g'arb soridir, shul tarafdin urushqon kishi mag'lub bo'lg'usidir”, qabilidagi uydirmalarga quloq tutmagan sarkarda buning aksi o'laroq zafar qozongan.

Demak, ayon bo'layotirki, Bobur ilohiy haqiqat nima, xurofiy aqida nima – bag'oyat teran anglagan, murakkab, qaltis tarixiy muhitda yagona to'g'ri yo'lni adashmay topa bilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, “Boburnoma”da keltirilgan tushlar haqidagi matn real asosga ega bo'lgan voqeaga asoslanadi. Mazkur tushlar Boburning hayotidagi muhim voqealar oldidagi uy-xayollari, orzu maqsadlari hamda e'tiqodi bilan bog'liq holdagi ong osti jarayonlariga borib taqaladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Brill, Henry D. Reading Babur's Dreams: Religiosity and Kingship in Early-Modern Central and South Asia. Kenyon College, 2019.
2. Бобур, Заҳириддин Мухаммад. Бобурнома. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Т., — 2002. Б.113
3. Бертельс Е. Э. «Бобур-наме» как литературный памятник. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1945.
4. Султонов Хайриддин. Бобурнинг тушлари: Қиссалар. Ҳикоялар. Эсселар - Ғ. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993.Б. 231